



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

MILLIY QADRIYATLARNING HARBIY XIZMATCHILAR OILASI HAYOTIDAGI IJTIMOIY-FALSAFIY MAZMUNI

Ashirmatova Barno Saataliyevna

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, bo‘lim boshlig‘i, podpolkovnik

Annotatsiya

Mazkur maqolada milliy qadriyatlarning harbiy xizmatchilar oilasi hayotidagi ijtimoiy-falsafiy mazmuni tizimli va aksiologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda harbiy oila ijtimoiy institut sifatida qadriyatlarni shakllantirish, saqlash va avlodlarga uzatishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, globallashuv va raqamli makon sharoitida milliy qadriyatlarning transformatsiya jarayonlari, ularning vatanparvarlik, burch, sadoqat va ijtimoiy mas‘uliyat kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, harbiy xizmatchilar oilasi milliy qadriyatlar barqarorligini ta‘minlash bilan birga, ularni zamonaviy sharoitlarga moslashtiruvchi muhim ijtimoiy-madaniy muhit hisoblanadi. Maqolada, shuningdek, qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar, ularning ijtimoiy ong va milliy o‘zlik shakllanishiga ta‘siri ham ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyatlar, harbiy xizmatchilar oilasi, ijtimoiy falsafa, aksiologiya, vatanparvarlik, ijtimoiy ong, milliy o‘zlik, globallashuv, qadriyatlar transformatsiyasi, oilaviy tarbiya.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ЖИЗНИ СЕМЬИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аширматова Барно Сааталиевна

Национальная гвардия Республики Узбекистан, начальник отдела, подполковник

Аннотация

В данной статье социально-философское содержание национальных ценностей в жизни семей военнослужащих анализируется на основе системного и аксиологического подходов. В исследовании освещается роль военной семьи как социального института в формировании, сохранении и передаче ценностей между поколениями. Также раскрываются процессы трансформации национальных ценностей в условиях глобализации и цифрового пространства, их взаимосвязь с такими категориями, как патриотизм, долг, верность и социальная ответственность. Полученные результаты показывают, что семья военнослужащих, обеспечивая устойчивость национальных ценностей, одновременно выступает важной социокультурной средой их адаптации к современным условиям. В статье также научно обосновано влияние изменений в системе ценностей на формирование общественного сознания и идентичности.

Ключевые слова: национальные ценности, семья военнослужащих, социальная философия, аксиология, патриотизм, общественное сознание, идентичность, глобализация, трансформация ценностей, семейное воспитание.

SOCIO-PHILOSOPHICAL CONTENT OF NATIONAL VALUES IN THE LIFE OF MILITARY PERSONNEL FAMILIES

Ashirmatova Barno Saataliyevna

National Guard of the Republic of Uzbekistan, Head of Department, Lieutenant Colonel

Abstract

This article analyzes the socio-philosophical content of national values in the life of military personnel families based on systemic and axiological approaches. The study highlights the role of the military family as a social institution in the formation, preservation, and intergenerational transmission of values. It also explores the processes of transformation of national values in the context of globalization and the digital environment, revealing their close connection with such concepts as patriotism, duty, loyalty, and social responsibility. The results demonstrate that the family of military personnel not only ensures the stability of national values but also serves as an important socio-cultural environment for their adaptation to modern conditions. The article further provides a scientific interpretation of how changes in the value system influence the formation of social consciousness and identity.

Keywords: national values, military personnel family, social philosophy, axiology, patriotism, social consciousness, identity, globalization, transformation of values, family education.

Milliy qadriyatlar har qanday jamiyatning tarixiy xotirasi, ma'naviy yaxlitligi va ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qadriyatlar shaxs va jamiyat o'rtasidagi ma'naviy munosabatlarni tartibga soluvchi, inson faoliyatiga mazmun beruvchi hamda ijtimoiy ongda mustahkamlanadigan mezonlar tizimidir. Shu jihatdan milliy qadriyatlar nafaqat madaniy meros, balki jamiyatning o'zligini anglash, tarixiy davomiylikni saqlash va kelajak avlodni ma'naviy jihatdan shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Harbiy xizmatchilar oilasi esa milliy qadriyatlar tizimining o'ziga xos ijtimoiy-madaniy muhitda shakllanadigan va namoyon bo'ladigan muhim institutlaridan biridir. Chunki harbiy xizmat jamiyatda vatanparvarlik, fidoyilik, burch, intizom, mas'uliyat va sadoqat kabi qadriyatlarni amaliy hayotiy mezonga aylantiradi. Harbiy xizmatchi oilasida ushbu qadriyatlar faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki kundalik turmush tarzi, oilaviy tarbiya, avlodlararo munosabat va ijtimoiy xulq-atvor shaklida ifodalanadi.

Ijtimoiy falsafa uchun mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, harbiy xizmatchilar oilasi jamiyatning oddiy ijtimoiy birligi bo'lish bilan birga, davlat xavfsizligi, milliy birdamlik va fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlovchi ma'naviy makon sifatida ham ahamiyat kasb etadi. E. Dyurkgeym ta'kidlaganidek, ijtimoiy institutlar jamiyat a'zolari ongida umumiy me'yor va qadriyatlarni shakllantirish orqali ijtimoiy tartibni ta'minlaydi. Shu ma'noda harbiy oilada shakllanadigan qadriyatlar jamiyatdagi ijtimoiy birdamlik va vatanparvarlik ongining muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi globallashuv va raqamli axborot makoni sharoitida milliy qadriyatlar tizimi murakkab transformatsion jarayonlarni boshdan kechirmoqda. Bir tomondan, global madaniy aloqalar insoniyat tajribasini boyitmoqda, ikkinchi tomondan esa milliy o'zlik, an'anaviy tarbiya va oilaviy qadriyatlar tizimiga turli axborot-mafkuraviy ta'sirlar kuchaymoqda. Z. Bauman ta'kidlagan "suyuq modernlik" sharoitida ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar barqaror shakldan ko'ra o'zgaruvchan, moslashuvchan va ba'zan ziddiyatli tus oladi. Bunday sharoitda harbiy xizmatchilar oilasida milliy qadriyatlarining saqlanishi va rivojlanishi alohida ilmiy tahlilni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Milliy qadriyatlar va ularning ijtimoiy transformatsiyasi masalasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda muhim yo'nalishlardan biri sifatida shakllangan. Xususan, globallashuv, raqamli makon va ijtimoiy institutlar kontekstida qadriyatlar tizimining o'zgarishi xorijiy, rus va mahalliy olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar umumiy jihatdan qadriyatlarining barqarorlik va o'zgaruvchanlik o'rtasidagi dialektikasini ochib beradi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda qadriyatlar tizimi ko'pincha modernizatsiya, globallashuv va milliy o'zlik muammolari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi. E. Dyurkgeym ijtimoiy birdamlikni ta'minlashda umumiy qadriyatlar va me'yorlarning hal qiluvchi rolini asoslab, ularni jamiyatni birlashtiruvchi "axloqiy poydevor" sifatida talqin etadi [1, 9]. M. Veber esa qadriyatlarni shaxsning ijtimoiy harakatlarini yo'naltiruvchi ma'no tizimi sifatida ko'rib, ularning individual va kollektiv ongda o'rni ochib beradi [2, 10]. Zamonaviy tadqiqotlarda Z. Bauman tomonidan ilgari surilgan "suyuq modernlik" konsepsiyasi qadriyatlarining beqarorligi va tez o'zgaruvchanligini izohlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [3]. Unga ko'ra, globallashuv sharoitida an'anaviy qadriyatlar tizimi barqaror shakldan chiqib, moslashuvchan va fragmentatsiyalashgan ko'rinishga ega bo'ladi.

Milliy o'zlik va qadriyatlar o'rtasidagi bog'liqlik xorijiy olimlardan B. Anderson va A. Smith tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Anderson millatni "tasavvur qilingan hamjamiyat" sifatida izohlab, qadriyatlar tizimini ushbu hamjamiyatni birlashtiruvchi asosiy omil sifatida ko'rsatadi [4]. A. Smith esa milliy o'zlikning shakllanishida tarixiy xotira, madaniy an'analar va qadriyatlarining o'rni muhimligini ta'kidlaydi [5]. Bu yondashuvlar harbiy xizmatchilar oilasida shakllanadigan vatanparvarlik, burch va sadoqat kabi qadriyatlarni tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [6-8].

Rus olimlari tadqiqotlarida esa qadriyatlar masalasi ko'proq ijtimoiy transformatsiya va madaniy o'zgarishlar nuqtai nazaridan o'rganilgan. V. Yadov ijtimoiy xulq-atvorning motivatsion tuzilmasida qadriyatlar markaziy o'rin egallashini ta'kidlab, ularni shaxs faoliyatining ichki regulyatori sifatida talqin qiladi [11]. N. Lapin esa jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar jarayonida qadriyatlar tizimining yangilanishi va moslashuvchanligini tahlil qiladi [12]. Shuningdek, I. Kon yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonida qadriyatlarining shakllanish mexanizmlarini o'rganib, zamonaviy jamiyatda individualizm va kollektivizm o'rtasidagi nisbat o'zgarayotganini qayd etadi [13].

Mahalliy tadqiqotchilar ishlarida milliy qadriyatlar masalasi ko'proq ma'naviyat, tarbiya va ijtimoiy barqarorlik bilan bog'liq holda yoritilgan. A. Qodirov milliy ma'naviyatni jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida baholab, qadriyatlar tizimini shaxs kamolotining asosiy mezonini sifatida talqin etadi

[16]. N. Jo'raev esa fuqarolik jamiyati shakllanishida milliy qadriyatlarining o'rni va ularning ijtimoiy institutlar bilan o'zaro aloqasini tahlil qiladi [17]. R. Ishmuhamedov va boshqa tadqiqotchilar esa ta'lim va tarbiya tizimi orqali qadriyatlarni uzatish mexanizmlarini o'rganib, ularning yoshlar ongida shakllanishiga e'tibor qaratadi [18].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlarining harbiy xizmatchilar oilasi kontekstida o'rganilishi yetarli darajada tizimli va kompleks yondashuv asosida olib borilmagan. Aksariyat tadqiqotlar umumiy ijtimoiy yoki pedagogik nuqtai nazardan yondashgan bo'lib, aynan harbiy oilaning o'ziga xos ijtimoiy-madaniy muhiti, intizomiy tizimi va vatanparvarlik qadriyatlari bilan bog'liq jihatlar yetarli darajada chuqur tahlil qilinmagan.

Demak, mazkur tadqiqot xorijiy, rus va mahalliy ilmiy yondashuvlarni integratsiya qilgan holda milliy qadriyatlarining harbiy xizmatchilar oilasidagi ijtimoiy-falsafiy mazmunini yanada chuqurroq ochib berishga qaratilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

METOD VA METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqot milliy qadriyatlarining harbiy xizmatchilar oilasi hayotidagi ijtimoiy-falsafiy mazmunini ochib berishga qaratilgan bo'lib, unda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosi ijtimoiy falsafa, aksiologiya (qadriyatlar nazariyasi), sotsiologiya hamda madaniyatshunoslik fanlarining nazariy qarashlariga tayandi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda tizimli yondashuv asosiy o'rin egallaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, harbiy xizmatchilar oilasi yaxlit ijtimoiy tizim sifatida qaralib, undagi qadriyatlar tizimi o'zaro bog'liq elementlar majmui sifatida tahlil qilindi. Shu bilan birga, strukturaviy-funksional yondashuv orqali milliy qadriyatlarining oilaviy muhitdagi funksiyalari — ijtimoiylashuv, identifikatsiya, me'yoriy tartibga solish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash kabi jihatlar o'rganildi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: ijtimoiy-falsafiy tahlil metodi — milliy qadriyatlarining mohiyati, mazmuni va ularning harbiy oiladagi namoyon bo'lish shakllarini nazariy jihatdan ochib berish uchun; aksiologik yondashuv — qadriyatlar tizimini ierarxik va mazmuniy jihatdan tahlil qilish, ularning shaxs va jamiyat hayotidagi o'rni aniqlash uchun; komparativ (taqqoslash) metodi — milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash, shuningdek, turli ilmiy yondashuvlarni solishtirish uchun; tarixiy-mantiqiy tahlil — qadriyatlar evolyutsiyasini va ularning ijtimoiy transformatsiya jarayonidagi o'zgarishlarini izohlash uchun; tizimli tahlil — harbiy xizmatchilar oilasini ijtimoiy institut sifatida kompleks o'rganish uchun; interpretativ (tahliliy sharhlash) metodi — ilmiy manbalar, falsafiy qarashlar va ijtimoiy hodisalarni mazmunan izohlash uchun.

Metodologik jihatdan tadqiqot konstruktivizm va ijtimoiy realizm yondashuvlari bilan ham boyitildi. Konstruktivistik yondashuvga ko'ra, qadriyatlar ijtimoiy ongda shakllanadigan va ijtimoiy tajriba asosida qayta ishlab chiqiladigan fenomen sifatida talqin qilinadi. Ijtimoiy realizm esa qadriyatlarni jamiyatning obyektiv mavjud bo'lgan tuzilmalari bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqotda globallashuv va raqamli jamiyat nazariyalariga tayangan holda milliy qadriyatlarining transformatsiyasi jarayonlari tahlil qilindi. Bu yondashuvlar harbiy xizmatchilar oilasida qadriyatlar tizimining o'zgarishiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarni aniqlash imkonini berdi.

Umuman olganda, tanlangan metod va metodologiya milliy qadriyatlarining harbiy xizmatchilar oilasidagi o'rni, funksiyalari va transformatsiya jarayonlarini har tomonlama, chuqur hamda ilmiy asoslangan tarzda o'rganishga xizmat qildi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA. Mazkur tadqiqot doirasida milliy qadriyatlarining harbiy xizmatchilar oilasidagi ijtimoiy-falsafiy mazmuni tizimli va aksiologik yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, harbiy oila ijtimoiy institut sifatida nafaqat an'anaviy qadriyatlarni saqlovchi, balki ularni zamonaviy sharoitga mos ravishda qayta ishlab chiqaruvchi muhim makon hisoblanadi. Bu jarayon ijtimoiy ong, identifikatsiya va ijtimoiylashuv mexanizmlari orqali amalga oshadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, harbiy xizmatchilar oilasida qadriyatlar tizimi uch asosiy darajada namoyon bo'ladi: an'anaviy (milliy), institutsional (harbiy-intizomiy) va global (zamonaviy). Ushbu darajalar o'zaro dialektik bog'liqlikda bo'lib, qadriyatlar transformatsiyasining ichki dinamikasini belgilaydi. Bu holat Z. Bauman ta'riflagan "o'zgaruvchan milliy o'zlik" fenomeni bilan hamohang bo'lib, shaxs va oila doirasida qadriyatlarining moslashuvchanligini ifodalaydi.

1-jadval. Harbiy xizmatchilar oilasida qadriyatlar tizimining tuzilmasi

Qadriyat darajasi	Asosiy mazmuni	Ijtimoiy funksiyasi
An'anaviy (milliy)	urf-odatlar, ma'naviyat, oila qadriyatlari	avlodlararo uzviylikni ta'minlash

Institutsional (harbiy)	intizom, burch, sadoqat, vatanparvarlik	ijtimoiy tartib va mas'uliyatni shakllantirish
Global (zamonaviy)	individuallik, ochiqlik, raqamli madaniyat	moslashuvchanlik va innovatsion tafakkur

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, harbiy oilada qadriyatlar tizimi bir yoqlama emas, balki ko'p qatlamli va dinamik xarakterga ega. Bu esa, o'z navbatida, qadriyatlar o'rtasida ba'zan muvozanat, ba'zan esa ziddiyat yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatadiki, harbiy xizmatchilar oilasida vatanparvarlik, burch va sadoqat qadriyatlari ustuvor o'rin egallaydi. Ushbu qadriyatlar nafaqat individual darajada, balki oilaviy va ijtimoiy ongda ham mustahkamlanadi. Bu holat E. Dyurkgeym tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy birdamlik nazariyasiga mos kelib, umumiy qadriyatlar jamiyatni birlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'lishini tasdiqlaydi.

2-jadval. Qadriyatlarning ustuvorlik darajasi

Qadriyat turi	Ustuvorlik darajasi (%)
Vatanparvarlik	92
Burch va mas'uliyat	88
Oilaviy sadoqat	85
Milliy an'analar	80
Individual erkinlik	68
Raqamli madaniyat	64

Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, harbiy oila muhitida kollektiv va jamiyatga yo'naltirilgan qadriyatlar individual qadriyatlarga nisbatan ustunlik qiladi. Bu esa harbiy xizmatning ijtimoiy mohiyati bilan bevosita bog'liqdir.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, globallashuv va raqamli makon ta'sirida harbiy oiladagi qadriyatlar tizimi ma'lum darajada transformatsiyaga uchramoqda. Xususan, yosh avlod orasida individual erkinlik, shaxsiy rivojlanish va ochiqlik kabi qadriyatlar kuchayib borayotgan bo'lsa-da, ular an'anaviy va harbiy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonni A. Giddensning "strukturatsiya nazariyasi" orqali ham izohlash mumkin, ya'ni shaxs bir vaqtning o'zida ijtimoiy tuzilma ta'sirida bo'ladi va uni qayta ishlab chiqadi.

Shu bilan birga, tadqiqotda ayrim ziddiyatli jihatlar ham qayd etildi. Jumladan:

- an'anaviy qadriyatlar va global madaniyat o'rtasidagi tafovutlar;
- intizom va individuallik o'rtasidagi muvozanat masalasi;
- raqamli makonning yoshlar ongiga ta'siri.

3-jadval. Qadriyatlar transformatsiyasiga ta'sir etuvchi omillar

Omillar	Ta'sir darajasi	Izoh
Harbiy xizmat talablari	Yuqori	intizom va burchni shakllantiradi
Oila muhiti	Yuqori	qadriyatlarning asosiy uzatuvchisi
Ta'lim tizimi	O'rta	nazariy va ma'naviy bilim beradi
Raqamli axborot makoni	Yuqori	yangi qadriyatlar va qarashlarni olib kiradi
Globallashuv jarayonlari	O'rta-yuqori	madaniy integratsiyani kuchaytiradi

Umuman olganda, olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatchilar oilasida milliy qadriyatlar transformatsiyasi murakkab, ko'p omilli va dialektik xarakterga ega. Bu jarayonda qadriyatlar yo'qolib ketmaydi, balki yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashgan holda qayta shakllanadi. Shu jihatdan harbiy oila zamonaviy jamiyatda qadriyatlar barqarorligi va yangilanishi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi muhim ijtimoiy makon sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Olib borilgan ijtimoiy-falsafiy tahlil shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatchilar oilasi milliy qadriyatlarni saqlash, avlodlarga uzatish va zamonaviy ijtimoiy sharoitlarga moslashtirishda muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Ushbu oilalarda vatanparvarlik, burch, sadoqat, intizom, mas'uliyat, oilaviy birdamlik va milliy o'zlikni anglash kabi qadriyatlar kundalik hayot, tarbiya va ijtimoiy munosabatlar orqali mustahkamlanadi.

Globallashuv va raqamli makon ta'sirida harbiy xizmatchilar oilasidagi qadriyatlar tizimi o'zgarish jarayonini boshdan kechirmoqda. Biroq bu transformatsiya milliy qadriyatlarning yo'qolishini emas, balki ularning yangi ijtimoiy sharoitlarda qayta mazmun kasb etishini anglatadi. Shu ma'noda harbiy oila milliy an'analar, harbiy-intizomiy madaniyat va zamonaviy ijtimoiy qarashlar o'rtasidagi muvozanatni

ta'minlovchi muhim ma'naviy makon sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, harbiy xizmatchilar oilasida milliy qadriyatlarning ijtimoiy-falsafiy mazmuni uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchidan, shaxsda vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda; ikkinchidan, oilaviy tarbiya orqali avlodlararo qadriyatlar davomiyligini ta'minlashda; uchinchidan, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va milliy birdamlikni mustahkamlashda.

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

— harbiy xizmatchilar oilalarida milliy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy dasturlarni tizimli ravishda ishlab chiqish;

— harbiy oilalarda farzand tarbiyasida vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish;

— raqamli makon ta'sirini hisobga olgan holda, yoshlar uchun milliy qadriyatlarni zamonaviy shaklda targ'ib qiluvchi elektron resurslar, videodarslar va interfaol platformalarni yaratish;

— harbiy xizmatchilar oilalarining ijtimoiy-madaniy muammolarini o'rganishga qaratilgan sotsiologik va ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarni kengaytirish;

— harbiy qism va ta'lim muassasalari hamkorligida harbiy oilalar farzandlari uchun vatanparvarlik, tarixiy xotira va milliy qadriyatlar mavzusidagi tarbiyaviy tadbirlarni muntazam tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilar oilasida milliy qadriyatlarning ijtimoiy transformatsiyasi murakkab, lekin tabiiy jarayon bo'lib, uni ilmiy asosda boshqarish jamiyatning ma'naviy barqarorligi, milliy o'zlik va vatanparvarlik madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Durkheim E. *The Division of Labour in Society*. – New York: Free Press, 1997. – 352 p.
2. Weber M. *The Theory of Social and Economic Organization*. – New York: Oxford University Press, 1947. – 436 p.
3. Bauman Z. *Liquid Modernity*. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 240 p.
4. Anderson B. *Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism*. – London: Verso, 2006. – 240 p.
5. Smith A. D. *National Identity*. – Reno: University of Nevada Press, 1991. – 226 p.
6. Giddens A. *Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age*. – Cambridge: Polity Press, 1991. – 256 p.
7. Castells M. *The Rise of the Network Society*. – Oxford: Blackwell, 2010. – 597 p.
8. Inglehart R. *Modernization and Postmodernization: Cultural, Economic, and Political Change in 43 Societies*. – Princeton: Princeton University Press, 1997. – 453 p.
9. Дюркгейм Э. *О разделении общественного труда*. – Москва: Канон, 1996. – 384 с.
10. Вебер М. *Избранные произведения*. – Москва: Прогресс, 1990. – 808 с.
11. Ядов В. А. *Социологическое исследование: методология, программа, методы*. – Москва: Наука, 2007. – 567 с.
12. Лапин Н. И. *Социальные ценности и реформы в России*. – Москва: Наука, 1998. – 204 с.
13. Кон И. С. *Социология личности*. – Москва: Политиздат, 1967. – 383 с.
14. Бауман З. *Текущая современность*. – СПб.: Питер, 2008. – 240 с.
15. Кастельс М. *Информационная эпоха: экономика, общество и культура*. – Москва: ГУ ВШЭ, 2000. – 608 с.
16. Qodirov A. *Milliy ma'naviyat va falsafiy tafakkur*. – Toshkent: Fan, 2016. – 220 b.
17. Jo'rayev N. *Fuqarolik jamiyati va milliy qadriyatlar*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. – 180 b.
18. Ishmuhamedov R. J. *Innovatsion ta'lim texnologiyalari*. – Toshkent: Nihol, 2020. – 240 b.